

SHAXSNI SHAKLLANISHIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Do'sanova Dilnoza Absatovna

Termiz davlat pedagogika instituti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar F.U.Olloqulova

Annatsiya: *Ushbu maqolada yosh avlod ongi, tasavvuri va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yod g'oyalarning ta'siridan uzoq bo'lishini ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytara olish ko'nikmasini ham shaklaantiradi, milliy qadriyatlarimizni asrab avaylashga undaydi. Bugungi kunda globallashuvning eng salbiy oqibatlaridan biri bo'lgan ommaviy madaniyatning yoshlarimiz ongiga ta'siri birmuncha jadallashgan vaqtda, yoshlarimizni milliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom, sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy barkamol, ruhan tetik, aqlan yetuk va jismonan sog'lom shaxs bo'lib voyaga yetishishini ta'minlash bugungi kunda birmuncha mas'uliyatli va jiddiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.*

Kirish so'zlar: *milliy qadriyat, umumbashariy qadriyat, ta'lim, tarbiya, navro'z, urf-odat, an'ana, barkamol shaxs, ma'naviyat.*

Yurtimizning o'ziga xos rivojlanish, yangilanish, yuksalish davri kundan kun yangilanib, o'ziga xos ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu yuksalishning zamirida esa inson va uning baxt saodati, manfaatlari yotadi. Yurtimizda insonlarning tinch-totuv yashashi, ularga barcha qulay imkoniyatlarni yaratish va baxtli kelajagini ta'minlash masalasi turadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov yurtimiz fuqorolarining go'zal hayot va baxtli kelajakka yuz tutishida tarixiy xotira, shonli o'tmish, asarlarga tengdosh qadriyatlar bilan birga bo'lishi kerak deb hisoblagan edi. Toki avlodlarimiz qaysi davrda yashamsinlar o'z o'tmishi va qadriyatlari bilan behad g'ururlansinlar. Zero, millatning dunyoda mavjudlik belgisi - uning qadriyatlaridir. Dunyoda millatlar borki, barchasi o'z qadriyatlari va an'analari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Pedagog, olim, professor Oynisa Musurmonova aytganlardek, "Inson qadriyat bilan tirik, qadriyat bilan Aziz va mukarramdir".

Darhaqiqat, qadriyat bu insonni o'zligini anglashga yordam beradi. Shu yo'rinda bir savol tug'iladi: "Qadriyat - ozi nima?". Dastlab mana shu so'zning mohiyatini ochib berishimiz lozim deb topdik.

Qadriyat - bu voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

Demak, inson uchun qadrlı bo'lgan har bir narsa qadriyat ekan. Qadriyat ham o'z ichida bir qancha guruhlarga bo'linadi. Bular milliy qadriyatlar, shaxsiy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlardir.

Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun-qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy qadriyatlardir.

Muayyan bir ellat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma'naviyati, urf-odat va an'analari, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq bo'lgan qadriyatga milliy qadriyat deyiladi.

Bir insonning faqat o'zigagina tegishli bo'lgan narsalar, holat-xususiyat va fazilatlar shaxsiy qadriyat hisoblanadi. Demak, qadriyat butun bir jamiyatga, ma'lum bir hududga va faqat bitta insonga tegishli bo'lishi mumkin ekan.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" deb nomlangan kitobida "Biz yoshlarimizning milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur",-deb ta'kidlaydi. Zero, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hayot sinovidan o'tgan, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir.

Milliy qadriyatlarimizning namunasi bo'lgan Navruz bayrami yurtimizda har yili tantanali ravishda nishonlanadi. Navruz yangi kun demakdir. Ya'ni shu kuni kun va tun tenglashadi. Sharq mamlakatlarida bu kunni yangi kun, yangi yilning birinchi kuni deya ulug'lashadi. Navro'zda momolarimiz doshqozonda sumalaklar qaynatishadi, yangalarimiz turli taomlar, ko'k somsa, norin, g'ilmindi, chuchvara va boshqa bahoriy salatlar tayyorlashadi. Yigitlarimiz milliy o'yinlarimiz bo'lmish kurash, arqon tortish, chillak va ko'pkari kabilarda o'zlarini sinab ko'rishadi. Qizlar esa o'zlariga oro berib, yangi ko'ylaklar kiyib, sochlarini mayda o'rib laparlar aytishib, qoshiqlar kuylashadi. Navro'z xalqimizning o'chmas va boqiy qadriyatlaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Navro'z haqida yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham o'zining xalqimizga yo'llagan maruzasida qayidagicha ta'riflaydi: "Navro'z – chinakam xalq bayrami, milliy o'zligimiz ko'zgusi, ma'naviy va madaniy hayotimizning ajralmas qismidir. Chindan ham, bizning kuchimiz – birlik va ahillikda; bizning qudratimiz – mehr-oqibat, o'zaro ko'mak va saxovatda; bizning yutug'imiz ertangi kunga bo'lgan yuksak ishonchimizda."

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonining oldida turgan muhim vazifalardan biri bu barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar va an'alarimizdan foydalanishdir. Ayni paytda, yurtimizda manan yetuk va barkamol bo'lgan shaxsni voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: "O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'alariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Biz bugun ko'p millatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo'lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxti-kamolini o'ylab, el-yurtimizning, xalqimizning yorug' kelajagini ko'zlab oldimizga ulkan

vazifalar qo'yimoqdamiz. Niyati ulug' xalqning-ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi",- degan jumllarini keltirishimiz o'rinlidir. Shu o'rinda shuni aytib o'tishimiz joizki ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar va an'analarning ahamiyati katta bo'lib, ular tarbiya jarayonida eng ta'sirchan qurol vazifasini bajaradi. Yurtimizning kelajagi yoshlarimiz qo'lida. Qanday yoshlar? Jismonan sog'lom, manan yetuk, barkamol yoshlar. Bunday yoshlarimiz ta'lim- tarbiyani, odob-axloqni, milliy qadriyat va an'analarni hurmat qiladi va ularni asrab avaylaydi. O'zbekistonning o'z buyuk tarixi, madaniyati va ma'naviyati bor ekan uning kelajagi ham buyuk bo'ladi .

Xulasa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, ertangi kunimiz, kelajagimiz, jamiyatimiz ravnaqi yoshlarimizga bugungi kunda qay darajada ta'lim-tarbiya berayotganimizga bog'liq. Bugun o'tmish an'alaridan, milliy urf-odat va madaniyatidan, buyuk bobokalonlarining o'chmas adabiy merosidan ma'nan oziqlangan, zamon ilm-fan yutuqlari bilan hamnafas, dunyoda bo'layotgan yangiliklardan xabardor, mavjud vaziyatlarni tahlil qila oladigan, o'zining qat'iy nuqtai nazariga ega avlodni tarbiyalash masalasi butun boshli xalqimiz, davlatimiz oldida turgan muhim va rad etib bo'lmas masala sanaladi. Ajdodlarimiz yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir degan hikmatlarining o'ziyoq, inson qalbiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ehtirom yoshlik davridan boshlab singdirmoq lozimligini ko'rsatadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - T.: O'qituvchi, 1996.- 190 b.

2."Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz"- Sh. Mirziyoyev.

1. Оллокулова, Ф. (2022). Социально-педагогическое значение формирования научно-исследовательской деятельности учеников начальных классов на основе концентризма. Общество и инновации, 3(10/S), 128–134. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss10/S-pp128-134>

2. Ollokulova F.U. VALUE RELATIONSHIPS IN YOUNG PEOPLE AND THE UNIQUENESS OF THEIR DECISION MAKING Teacher of the Department of Theory and Practical of Primary Education. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022

3. Bosimova, M. D. qizi, & Ollokulova, F. U. (2023). TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA UMUMMADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(1), 692–695. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1275>

4. F.U.Ollokulova. (2023). TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. Tadqiqotlar, 6(2), 336–339. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/01/article/view/218>